


## FARG'ONA VILOYATI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1- may holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026-yil 1- may holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 38,7 mingtani tashkil etadi, shundan 32,1 mingtasi yoki 82,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 108,7 foizni tashkil etdi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).**



Soni



O'sish sur'ati

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>2026</b>	38 726	32 394	32 094
<b>2025</b>	36 021	29 751	29 523
<b>2024</b>	38 997	32 800	32 551
<b>2023</b>	42 706	36 753	36 522
<b>2022</b>	48 083	41 982	41 718

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Farg'ona shahrida – 18,1 foiz, Qo'qon shahrida – 10,1 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,2 foiz va Oltiariq tumanida – 5,9 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Marg'ilon shahrida – 86,5 foiz va 87,3 foiz, Oltiariq tumanida – 86,5 va 87,0 foiz, Quvasoy shahrida – 86,2 foiz va 87,1 foiz hamda Qo'qon shahrida – 85,7 foiz va 86,8 foiz to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>38 726</b>	<b>32 094</b>	<b>32 394</b>
Farg'ona shahar	6 998	5 840	5 917
Qo'qon shahar	3 902	3 345	3 385
Marg'ilon shahar	2 799	2 421	2 443
Oltiariq tumani	2 290	1 980	1 992
Uchko'prik tumani	1 954	1 647	1 680
Farg'ona tumani	1 832	1 469	1 485
Quva tumani	1 795	1 438	1 448
O'zbekiston tumani	1 723	1 405	1 410
Rishton tumani	1 649	1 307	1 310
Dang'ara tumani	1 575	1 305	1 314
Toshloq tumani	1 528	1 288	1 294
Quvasoy shahar	1 499	1 292	1 306
Buvayda tumani	1 465	1 195	1 199
Bag'dod tumani	1 432	1 096	1 109
Yozyovon tumani	1 428	1 203	1 208
Qo'shtepa tumani	1 380	1 108	1 123
Beshariq tumani	1 367	1 057	1 060
So'x tumani	1 160	971	980
Furqat tumani	950	727	731

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

## Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- may holatiga 33,4 foizni (39,9 foiz va 40,1 foiz) tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,3% (19,4% va 19,4%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,0% (7,1% va 7,1%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 528	1 484	1 474
Sanoat	6 305	6 289	6 218
Qurilish	2 333	2 311	2 279
Savdo	12 933	12 933	12 855
Tashish va saqlash	1 512	1 506	1 495
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 200	2 193	2 185
Axborot va aloqa	726	717	714
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 590	1 187	1 175
Boshqa turlar	9 599	3 774	3 699

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-may holatiga ko'ra, 32,4 mingta faol tijorat korxonalaridan 23,3 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



### Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	23 346	72,1
Xususiy korxonalar	4 884	15,1
Oilaviy korxonalar	3 773	11,6
Aksiyadorlik jamiyati	40	0,1
Boshqalar	351	1,1

## Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 632 ta korxonalaridan 236 tasi qo'shma korxonalar va 396 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026- yilning 1- may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 122 taga oshgan. Bu asosan, savdo korxonalar sonining 115 tadan 149 taga, (o'sish 34 taga), sanoatda 243 tadan 272 taga (o'sish 29 taga) va axborot va aloqa sohasida 20 tadan 41 taga (o'sish 21 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>632</b>	<b>236</b>	<b>396</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	22	10	12
Sanoat	272	127	145
Qurilish	56	23	33
Savdo	149	43	106
Tashish va saqlash	13	6	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	24	8	16
Axborot va aloqa	41	1	40
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	11	4	7
Boshqa turlar	44	14	30

### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 159 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 31,2 foizini tashkil etdi. Farg'ona viloyatining iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (19,4%), Turkiya (13,5%), Janubiy Koreya (5,5%) va Qozog'iston (5,1%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>632</b>	<b>236</b>	<b>396</b>
Xitoy	230	89	141
Rossiya	114	47	67
Turkiya	66	18	48
Janubiy Koreya	33	12	21
Qirg'iziston	29	15	14
Tojikiston	25	10	15
Ozarbayjon	18	1	17
Qozog'iston	11	5	6
Yaponiya	11	2	9
Belorussiya	10	5	5
Eron	9	4	5
Hindiston	8	3	5
Afg'oniston	6	1	5
Germaniya	5	2	3
Shveysariya	5	3	2
Ukraina	5	2	3
AQSH	5	1	4
BAA	3	1	2
Boshqalar	39	15	24

### III. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

#### **Metama'lumot uchun havolalar:**

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

#### **Mavzuga doir ko'rsatkichlar::**

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**  
N. Maxmudova  
73 249-00-08 (4060)

**Maznil:**  
150100, Farg'ona sh.,  
Oq yo'l ko'chasi, 104A

---